

MANG’ITLAR SULOLASI DAVRIDA HARBIY ISH TARIXI

Eshqulov Elyor Ashur o’g’li

Qarshi davlat universiteti, Tarix fakulteti

Tarix mutaxassisligi, 2-kurs magistranti

Email: eloreshqulov@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22285634>

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1756–1920-yillarda Buxoro amirligini boshqargan o’zbek mang’itlar sulolasi davridagi harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi, qo’shin tuzilishi, unvonlar iyerarxiyasi, hududiy mudofaa boshqaruvi va ushbu davrning fundamental tarixiy-manbaviy asoslari ilmiy-nazariy jihatdan keng qamrovli tahlil qilingan. Tadqiqotda sulola asoschisi Muhammad Rahimxon (1756-yil) davridan boshlab amirlikda qaror topgan harbiy elita tizimi, podsholik taxtiga ko’tarilishning shariat qonunlariga asoslangan harbiy-diniy va huquqiy marosimlari ochib berilgan. Davrning fundamental yozma manbalari hisoblangan “Tuhfai xoniy”, “Tarixi Salatin-i Mang’itiya”, Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” hamda Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” asarlari asosida amirlik qo’shinlarining boshqaruv organlari (Qo’shbegi bolo, Qo’shbegi poyon, Kulli qo’shbegi, To’pchiboshi, Otaliq, Yasovulboshi, Ponsadboshi) faoliyati va jangovar majburiyatlari tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada tarixiy manbalarni zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalar vositasida o’qitish va darsliklarni interpretatsiya qilish orqali bo’lajak tarixchilarda milliy g’urur va vatanparvarlikni shakllantirishning pedagogik transformatsiya mexanizmlari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Mang’itlar sulolasi, Buxoro amirligi, harbiy ish, harbiy qo’shin tuzilishi, ma’muriy-harbiy boshqaruv, Muhammad Rahimxon, amir ul-mo’minin, Kulli qo’shbegi, To’pchiboshi, “Tarixi Salimiy”, “Tarixi nofeiy”, vatanparvarlik tarbiyasi, oliy ta’lim, raqamli innovatsiyalar.

ИСТОРИЯ ВОЕННОГО ДЕЛА В ПЕРИОД ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ

Аннотация В данной статье научно-теоретически и всесторонне проанализированы система военно-административного управления, структура войск, иерархия чинов, управление территориальной обороной и фундаментальные историко-источниковедческие основы эпохи узбекской династии Мангытов, правившей Бухарским эмиратом в 1756–1920 годах. В исследовании раскрыта система военной элиты, сформировавшаяся в эмирате начиная с периода правления основателя династии Мухаммада Рахим-хана (1756 г.), а также военно-религиозные и правовые церемонии восхождения на престол, основанные на законах шариата. На основе фундаментальных письменных источников эпохи — «Тухфай хани», «Тарихи салатини-и мангитийа», «Тарихи Салими» Мирзы Салимбека и «Тарихи нафи’и» Мухаммада Али Балджувани — систематически изучена деятельность и боевые обязанности органов управления эмирскими войсками (Кушбеги боло, Кушбеги пойон, Кулли кушбеги, Топчибаши, Аталык, Ясавулбаши, Понсадбаши). Кроме того, в статье научно-методически обоснованы педагогические механизмы трансформации, направленные на формирование национального предметного гордости и патриотизма у будущих историков путем преподавания исторических источников в современной системе высшего образования с помощью цифровых инноваций и интерпретации учебников.

Ключевые слова: Династия Мангитов, Бухарский эмират, военное дело, структура войск, административно-военное управление, Мухаммад Рахим-хан, амир ал-муминин, Кулли кушбеги, Топчибаши, «Тарихи Салими», «Тарихи нафи’и», патриотическое воспитание, высшее образование, цифровые инновации.

HISTORY OF MILITARY AFFAIRS DURING THE MANGHIT DYNASTY

Abstract This article presents a comprehensive scientific and theoretical analysis of the military-administrative system, troop structure, hierarchy of ranks, territorial defense management, and fundamental historical source-based foundations during the rule of the Uzbek Manghit dynasty in the Emirate of Bukhara (1756–1920). The research reveals the military elite system established in the emirate from the period of the dynasty's founder, Muhammad Rahim Khan (1756), alongside the military-religious and legal enthronement ceremonies based on Sharia law. Based on the fundamental written sources of the era—“Tuhfai Khani”, “Tarikhi Salatin-i Manghitiya”, Mirza Salimbek’s “Tarikhi Salimi”, and Muhammad Ali Baljuvani’s “Tarikhi Nafi’i”—the activities and combat duties of the governing bodies of the Emirate’s army (Kushbegi Bolo, Kushbegi Poyon, Kulli Kushbegi, Topchibashi, Ataliq, Yasavulbashi, Ponsadbashi) are systematically analyzed. Furthermore, the article provides a scientific and methodological rationale for pedagogical transformation mechanisms aimed at fostering national pride and patriotism among future historians through teaching historical sources in modern higher education using digital innovations and textbook interpretation.

Keywords: Manghit dynasty, Emirate of Bukhara, military affairs, troop structure, administrative-military management, Muhammad Rahim Khan, Amir al-Mu'minin, Kulli Kushbegi, Topchibashi, “Tarikhi Salimi”, “Tarikhi Nafi’i”, patriotic education, higher education, digital innovations.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash davrida milliy davlatchiligimiz tarixini, xususan, o‘tmishdagi harbiy-siyosiy va ma’muriy boshqaruv tizimlari evolyutsiyasini asriy turg‘unlik stereotiplaridan xoli ravishda, birlamchi manbalarga tayangan holda xolis tadqiq etish pedagogika va tarix fanlarining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek davlatchiligi zanjirining muhim xalqalaridan biri bo‘lgan va XV asrdan buyon tarixiy manbalarda o‘zbek nomi bilan qat’iy atalgan turkiy-mo‘g‘ul kelib chiqishiga ega bo‘lgan mang‘itlar sulolasi davridagi (1756–1920-yillar) Buxoro amirligi harbiy ishi tizimi o‘zining tarkibiy tuzilishi, mudofaa strategiyasi va ma’muriy boshqaruv mexanizmlari bilan chuqur ilmiy tadqiqotni talab etadi. Buxoro — O‘zbekistonning qadimiy va boy tarixga ega bo‘lgan madaniy markazlaridan biri bo‘lib, uning siyosiy, ijtimoiy, harbiy va ma’muriy hayoti tarixshunoslik fanida alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, bugungi global mafkuraviy ziddiyatlar sharoitida yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotira ruhida tarbiyalashda o‘tmishdagi harbiy salohiyat, strategik yutuqlar hamda tizimli boshqaruv mexanizmlarining sabab va oqibatlarini chuqur anglatish jamiyat barqarorligining muhim kafolatidir.

XVIII asrning o‘rtalarida Buxoro xonligida yuz bergan keskin ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy voqealar o‘zbeklarning mang‘it urug‘i vakillarini hokimiyat tepasiga olib chiqdi. 1756-yilda Muhammad Rahimxon rasman Buxoro taxtiga o‘tirib, xon unvonini egallashi bilan mang‘itlar sulolasining rasmiy boshqaruvi boshlandi. Ashtarxoniylar hukmronligining

so’nggi choragiga kelib, markaziy hokimiyatning nihoyatda zaiflashishi, ichki feodal tarqoqlik, bekliklarning o’zboshimchaligi va soliq tizimidagi tartibsizliklar harbiy qo’shinning jangovar salohiyatini butkul barbod qilgan edi. Siyosiy parokandalik sharoitida taxtni egallagan Muhammad Rahimxon davlat mustaqilligini saqlash va ichki ayirmachilikni jilovlashning yagona vositasi sifatida harbiy qo’shin tuzilishini tubdan isloh qilish, hokimiyatni bevosita markaziy harbiy elitaga bo’ysundirish tizimini boshlab berdi. Ayniqsa, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab hukmronlik qilgan mang’itlar sulolasi davrida davlat boshqaruvining markazlashuvi yanada kuchaydi. Ushbu davrda shakllangan markaziy va mahalliy boshqaruv organlari davlatning siyosiy barqarorligi va harbiy salohiyatini ta’minlashda muhim o’rin tutdi [2, B. 45]. Amirlikning eng muhim harbiy va ma’muriy qarorlari Buxoro shahridagi Ark saroyida, qat’iy shariat qonunlariga asoslangan holda qabul qilingan.

Biroq, bugungi oliy ta’lim tizimida va zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ushbu davrga oid harbiy-ma’muriy jarayonlarni talabalarga yetkazishda jiddiy uslubiy muammolar ko’zga tashlanmoqda. Mavjud fundamental muammo — ta’lim muassasalarida mang’itlar davri harbiy ishi va davlat tuzumi tarixini faqatgina darsliklardagi umumiy sxemalar yoki quruq xronologik ma’lumotlar vositasida o’qitilishidadir. Birlamchi fors-tojik tilidagi salnomalar, tarixiy xronikalardagi boshqaruv unvonlari va ularning harbiy vazifalari tahlili zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari bilan integratsiya qilinmayapti. Natijada, darslar talabalar uchun passiv yodlash ob’ektiga aylanib, ularda tarixiy obyektivlikni tahlil qilish hamda ajdodlar harbiy zakovatiga nisbatan yuksak ma’naviy-vatanparvarlik pozitsiyasini shakllantirish funksiyasini to’liq bajara olmayapti. Ushbu uslubiy va ilmiy bo’shliqni to’ldirish maqsadida, mazkur maqolaning maqsadi — mang’itlar sulolasi davridagi harbiy ish va davlat boshqaruv tizimining tarkibiy tuzilishini birlamchi tarixiy manbalar asosida tizimli tahlil qilish, davr tarixnavisligidagi ma’muriy-harbiy talqinlarni baholash va oliy ta’limda ushbu mavzuni innovatsion-pedagogik yondashuvlar yordamida transformatsiya qilish mexanizmlarini ilmiy asoslab berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mang’itlar sulolasining Buxoro amirligidagi harbiy-siyosiy faoliyati va davr madaniy-ma’rifiy hayoti mahalliy hamda xorijiy tarixshunoslikda o’ziga xos bosqichlarni bosib o’tgan. Davrning bevosita ma’muriy va harbiy boshqaruv asoslarini shakllantirishda mahalliy tarixnavislar qalamiga mansub fors-tojik tilidagi asarlar fundamental poydevor hisoblanadi. Xususan, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yaratilgan asarlarning mavzusi va uslubi asosan mang’it sulolasi vakillari faoliyati hamda siyosiy va harbiy masalalarga bag’ishlangan. O’rganilayotgan davr haqida muhim ma’lumot beruvchi manbalarga Qozi Vafo Karminagiyning “Tuhfai xoniy”, Mir Husayn ibn Shohmurodning “Maxozin ut-taqvo” asarlarini kiritish joiz. Ayniqsa, amirlikning XIX asrdagi harbiy-ma’muriy holati, mansabdor shaxslarning vazifalari haqida tarixchi va davlat arbobi Mirzo Salimbek o’zining meshhur “Tarixi Salimiy” asarida o’ta muhim ma’lumotlarni bayon etadi. Shuningdek, XX asr boshlarida ijod qilgan Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” asari ham amirlikning so’nggi davridagi harbiy boshqaruv inqirozlari va Ark saroyidagi unvonlar tizimini o’rganishda xolis manba bo’lib xizmat qiladi [3, B. 21].

Zamonaviy tarixshunoslikda Sh.S.Shodiyeva va A.A.Toirovlar tomonidan amirlikning harbiy boshqaruv tizimi ilk bor kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Harbiy unvonlar, harbiy boshqaruv idoralari, harbiy rahbarlarning siyosiy tizimdagi o’rni aniq tarixiy dalillar

asosida ko’rsatib berildi. Shuningdek, J. Shodiyev o’zining “Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi” asarida amirlikning markazlashuv bosqichlarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan yoritgan [2, B. 29.45]. Davr harbiy-ma’muriy tizimidagi inqirozlarni xolis ochib bergan eng ilg’or mutafakkir va tarixchi shubhasiz Ahmad Donish (1827–1897) hisoblanadi. U o’z asarlarida amirlikning ichki chirigan harbiy tuzilmasini keskin tanqid ostiga oladi. Shuningdek, Xorazm ilmiy muhitida faoliyat yuritgan Muhammad Hakimxon To’raning “Muntaxab ut-tavorix” asari hamda bevosita Amir Nasrulloh davrining harbiy yurishlari va ichki nizolarini aniq xronologik ketma-ketlikda yoritgan Mirzo Fazil Yoqubzoda asarlari harbiy san’at tarixini o’rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mang’itlar tarixi va harbiy salnomalarini tizimli bayon etuvchi yana bir muhim asar “Tarixi Salatin-i Mang’itiya” bo’lib, unda amirlarning faoliyati, ichki va tashqi harbiy siyosati xususida atroflicha ma’lumotlar berilgan. Zamonaviy darsliklar tizimida esa mazkur muammolar N.A.Abdurahimova va M.S.Isakovanning “Davlat muassasalari tarixi” darsliklarida [1, B. 92.98], A.Madrimov va G.Fuzailova qo’llanmalarida, akademik B.Ahmedovning fundamental asarlarida hamda S.A.Toshtemirova va D.B.Ahmadjonovlarning xonliklar davri tarixshunosligiga oid tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Mang’itlar davri harbiy tarixi va darsliklar tahlili Otamurotova R. tomonidan ham maxsus o’rganilgan [4, B. 17].

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy xolislik, davriylik, tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy tahlil hamda manbalarni qiyoslash metodlari tashkil etadi. Mang’itlar davri harbiy va ma’muriy boshqaruv tiziminig strukturaviy tuzilishi, uning an’anaviy unvonlari va harbiy vakolatlari manbalarni qiyosiy sintez qilish orqali o’rganildi. Talabalar dars jarayonlariga integratsiya qilingan innovatsion-pedagogik modullarning samaradorligi tizimli ravishda statistik tahlil etildi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida birlamchi yozma manbalar va zamonaviy tadqiqotlar sintez qilinishi natijasida mang’itlar sulolasi davri harbiy-ma’muriy boshqaruvi va taxtga o’tirish marosimlariga oid quyidagi fundamental ko’rsatkichlar aniqlandi:

1. Podsholik taxtiga ko’tarilishning harbiy-diniy tartibi

Manbalarda qayd etilishicha, mang’it hukmdorlari nafaqat dunyoviy, balki diniy hokimiyatni ham o’z qo’llarida jamlaganlar [1, B. 92.98]. Podsholik taxtiga ko’tarilish marosimi qat’iy iyerarxiya asosida quyidagicha kechgan: hamma vazirlar, qozi ul-quzzot va muftiylar dorus-saltanatga (Ark saroyiga) yig’ilib, shohlikka loyiq odamni oq kigiz ustiga o’tqazib, to’rt burchagidan ko’tarib podsholik taxtiga qo’yanlar. Sultonlik tojini boshiga kiygazib, islom bayrog’ini uning qo’liga berganlar. Keyin Qur’onni oldiga qo’yib aytganlar: “shariat yo’lidan chiqish mumkin emas, hukmi shariatga mos kelgan ahkomlarga rioya qilib, iqror va farmonbardor bo’lish zarur”, deb ont ichirganlar. Agar shar’iy hukmlarga, ya’ni Kalomulloh hukmlariga tajovuz etsa, Qur’onga havola etish joiz bo’lmagay. Diniy shart-sharoitlarni tushuntirib, shoh nomiga shohona tabl (nog’ora)larga urib, “islom podshoshi, amir al-mo’minin sayid amir falon ibn falonning saltanat davri bo’ldi, Olloh uning hukmronligini va sultonligini abadiy qilsin” deb jar solganlar. Mamlakatning hamma ixtiyori uning qo’liga o’tib, hokimlar tayinlash va ishdan olish ham shohning buyrug’i bilan bo’lgan [3, B. 21].

2. Markaziy boshqaruvdagi idoralar va iyerarxiya

Markaziy boshqaruvdagi harbiy-ma’muriy idoralar qat’iy funksional vazifalarga ega bo’lib, quyidagi tarkibda faoliyat yuritgan:

Amir – oliy hukmdor, harbiy va diniy rahbar; uning mutloq dunyoviy va diniy maqomi (“amir ul-mo’minin”) har qanday buyruqning muqaddas ijrosini ta’minlagan.

Qo’shbegi – bosh vazir, markaziy idoralarni muvofiqlashtiruvchi shaxs; amirdan keyingi eng yuqori lavozim bo’lib, u barcha boshqaruv idoralarini nazorat qilib, har kuni amirga og’zaki yoki yozma axborot taqdim etib turgan.

Otaliq – amirlik davlati suverenitetini qo’llab-quvvatlovchi maslahatchi;

Devonbegi – moliya va iqtisodiy masalalar uchun mas’ul;

To’pchiboshi – harbiy kuchlar boshlig’i (artilleriya va umumiy armiya qo’mondoni);

Qozi ul-quzzot – sud hokimiyatining oliy vakili.

3. Qo’shbegilik instituti va “Kulli qo’shbegi” unvoni

Tarixchi Mirzo Salimbek o’zining “Tarixi Salimiy” asarida yozishicha, amirlikda XIX asrda ikkita qo’shbegi lavozimi bo’lgan: “Qo’shbegiyi bolo” (Yuqori qo’shbegi) — bevosita Arkda amir bilan muloqotda bo’lib, bosh vazir vazifasini bajargan hamda saroy ishlarida, harbiy-ma’muriy qarorlarda yetakchi mavqeni egallagan. “Qo’shbegi poyon” (Bosh zakotchi) bo’lsa, Ark quysisidagi hovlilardan birida yashab, amirlik hududidagi butun soliq ishlarini nazorat qilgan. Mamlakatda favqulodda vaziyat yuz bersa yoki urushlar boshlansa, har ikki lavozim birlashtirilib, “Kulli qo’shbegi” (“kull” arabcha so’z bo’lib, u “barcha” degan ma’noni bildiradi) lavozimi joriy qilingan. Kulli qo’shbegi amirlikdagi butun hukumat ishlarini o’z qo’lida to’plagan va shoshilinch qarorlar qabul qilgan. Masalan, Turkiston o’lkasi Xalq Komissarlari Soveti raisi F.Kolesov Buxoroga hujum qilganida (1918-yil mart) kulli qo’shbegi lavozimiga tajribali Usmonbekbiy inoq tayinlangan [4, B. 17]. Demak, XVIII asrning o’rtalariga kelib qo’shbegi mansabi yetakchi o’ringa chiqib, barcha boshqaruv funksiyalarini o’z qo’liga to’play boshlagan [2, B. 29.45].

4. Ma’muriy-hududiy boshqaruv va quyi qo’shin bo’linmalari

Buxoro amirligi ma’muriy-hududiy jihatdan 27 ta beklik va 11 ta tumanga bo’lingan. Har bir beklik amir tomonidan tayinlangan bek tomonidan boshqarilgan. Beklar yuqori tabaqaga mansub, ko’pincha yirik yer egalari bo’lgan. Ular bevosita amirga bo’ysungan va har yili iqtisodiy, siyosiy va harbiy faoliyat bo’yicha hisobot topshirib turgan. Bekliklar o’z ichida amlokdorliklarga bo’lingan. Har bir amlokdorlik esa bir necha qishloqlardan iborat bo’lib, ular birinchi va ikkinchi yasovulboshi deyilgan. Yasovulboshining yordamchisi yasovul bo’lib, ularning soni birdan uch nafargacha va yirikroq bekliklarda undan ham ko’proq bo’lgan. Qo’shinda ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o’nboshi, miroxur kabi bo’linma boshliqlari xizmat qilgan [6, B. 116].

MUHOKAMA

Tarixshunoslik manbalarining chuqur tahlili shuni ko’rsatadiki, mang’itlar sulolasi davridagi harbiy-ma’muriy boshqaruv mutloq markazlashgan xarakterga ega bo’lib, u shariat va harbiy kuch omiliga tayangan. Ark saroyida o’tkaziladigan taxtga o’tirish marosimi va ont ichish jarayonlari hukmdorning ham diniy (Amir al-mo’minin), ham oliy harbiy qo’mondonlik maqomini qonuniylashtirishga xizmat qilgan. Mirzo Salimbekning “Tarixi Salimiy” asaridagi “Qo’shbegiyi bolo” unvonining tahlili amirlikda harbiy va fuqarolik boshqaruvi bir nuqtada birlashganligini tasdiqlaydi. Favqulodda harbiy holatlarda joriy etilgan “Kulli qo’shbegi” unvoni esa inqirozli davrlarda tezkor harbiy boshqaruvni ta’minlashning o’ziga xos mexanizmi bo’lgan, bunga 1918-yilgi Kolesov hujumi vaqtida Usmonbekbiy inoqning tayinlanishi yaqqol misoldir [4, B. 17].

Biroq, Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” asarida qayd etilganidek, asr oxiriga kelib ushbu boshqaruv tizimida jiddiy turg’unlik yuzaga keldi [3, B. 21].

Lavozimlarning, jumladan, harbiy qo'mondonlik (To'pchiboshi, Yasovulboshi, Ponsadboshi) unvonlarining professional malakaga ko'ra emas, balki saroyga va shaxsan amirga bo'lgan sadoqat darajasiga qarab taqsimlanishi, harbiy amaldorlikning ko'pincha nasldan-naslga o'tib turishi qo'shin poydevoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Amaldorlarning dabdabali hayoti (hashamiti) yuqori bo'lsa-da, ularning siyosiy va harbiy bilimlari, ilmiy salohiyati va zamonaviy harbiy taktikani tushunish darajasi o'sha davr talablaridan ancha orqada edi [6, B. 116]. N.A.Abdurahimova tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, ushbu ma'muriy tuzilmalarning ichki strukturaviy muammolarini o'rganish o'zbek davlatchiligi strategiyasini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega [1, B. 92.98].

Pedagogik transformatsiya nuqtai nazaridan yondashganda, ushbu harbiy-ma'muriy iyerarxiya va undagi inqirozlarni bugungi oliy ta'lim talabalari ongiga raqamli innovatsiyalar orqali yetkazish o'ta samarali natija beradi. Ma'ruza darslarida amirlik boshqaruv tizimining va 27 beklikning interaktiv xaritalarini, shuningdek, unvonlar organogrammasini multimedia vositalari yordamida namoyish etish talabalarda mustaqil tarixiy tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu usul talabalarni passiv eshituvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Natijada, tarixiy manbalar yosh avlod uchun o'tmishning quruq sahifalari emas, balki bugungi tinchlik, barqarorlik va milliy mustaqillikni qadrlashga undovchi ma'naviy laboratoriyaga aylanadi. Globallashuv asrida bunday yondashuv yoshlarda yot g'oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitet va kuchli mudofaa tafakkurini shakllantiradi.

XULOSA

O'rta Osiyo xonliklaridagi hokimiyat tuzilishi, davlat boshqaruv tizimi mang'itlar sulolasi hukmronligi davriga kelib takomillashib bordi. Jamiyatning barcha sohalari markazlashgan boshqaruv tizimiga bo'ysundirilib, davlat boshqaruvi amirning cheklanmagan hukmronligi qo'li ostida mujassamlashdi. O'tkazilgan kompleks ilmiy-nazariy va manbaviy tahlillar natijasida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

1. Mang'itlar sulolasi davrida davlat va harbiy boshqaruv mutloq markazlashtirilgan bo'lib, oliy hukmdor — Amir qo'lida ham dunyoviy, ham diniy-harbiy hokimiyat to'liq jamlangan hamda barcha strategik qarorlar shariat ahkomlari asosida Ark saroyida qabul qilingan.

2. “Qo'shbegiyi bolo”, “Qo'shbegiyi poyon” va favqulodda davrlarda joriy etiluvchi “Kulli qo'shbegi” unvonlari amirlikning ijroiya hamda harbiy quvvatini boshqaruvchi asosiy bo'g'inlar bo'lgan bo'lib, ularning funksional vazifalari “Tarixi Salimiy” va “Tarixi nofeiy” kabi birlamchi manbalarda xolis bayon etilgan.

3. Harbiy unvon va mansab egalari va ularning vazifalari, faoliyati ma'lum ma'noda XIX asr oxirlaridan boshlab zamonaviy tartibga o'ta boshlagan bo'lsa-da, harbiy amaldorlikning ko'pincha nasldan-naslga o'tib turishi harbiy xizmatga bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir etdi. Umuman olganda, amirlikdagi harbiy amaldorlarning hashamati yuqori bo'lib, siyosiy va harbiy bilimlari, ilmiy salohiyati, uquvi zamon talablaridan ancha orqada edi [6, B. 116].

4. Oliy ta'lim tizimida amirlikning harbiy-ma'muriy tuzilishi darslarini an'anaviy yodlash metodidan interaktiv organogrammalar, 27 ta beklik xaritalari va manbalar tahlili formatiga o'tkazish bo'lajak tarixchi talabalarda mustahkam mafkuraviy immunitetni va vatanparvarlik tuyg'usini strategik darajada yuksaltiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahimova N.A., Isakova M.S. Davlat muassasalari tarixi. – Toshkent: Fan, 2007.–B.92.98.
2. Shodiyev J. Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi. – Toshkent: O’qituvchi, 2010.–B.29.45.
3. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi nofeiy (Foydali tarix). – T.: Akademiya, 2001.–B.21.
4. Otamurotova R. Buxoro amirligidagi harbiy mansablar. – Urganch DU, 2015. – B.17.
5. Islomov M. O’zbekiston davlatlari tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2009.–B.115.
6. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o’rtalari – XIX-asro’rtalari):uslubiy/qo’llanma.–T.:Tamaddun,2022.–B.116.
7. Sotvoldiyev S. Buxoroda mang’itlar sulolasi hukmronligi davrida tarix fanining rivojlanishi//Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies–2025.–Volume 2,Issue 7.–P.119–121.